TILSHUNOSLIK

UDK: 81.1 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a101**

BADIIY KONSEPTLAR TIPOLOGIYASI

ТИПОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ КОНЦЕПТОВ

TYPOLOGY OF LITERARY CONCEPTS

Xalimova Firuza Rustamovna[1]

[1]**Xalimova Firuza Rustamovna** – Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti

Annotasiya

Ayni paytda, ilmiy adabiyotlarda konseptlarning ko‘p turlari belgilangan, biroq, har xil turdagi badiiy konseptlar o‘rtasidagi munosabatlarning qurilishini tasavvur qilish, tafakkurning operasion birliklari qanchalik va qay tarzda o‘zaro munosabatda bo‘lishini aniqlash imkonini beradigan umumiy belgilangan tasnif yo‘q. Mazkur maqola doirasida konseptlar tipologiyasiga bag‘ishlangan yondashuvlar; konseptlarning semantik mazmuniga ko‘ra turlari; milliy, madaniy va badiiy konseptlarning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

Аннотация

В научной литературе определено множество типов концептов, однако нет общепринятой классификации, позволяющей представить, каким образом выстраивается взаимосвязь между различными типами художественных концептов, определить, как взаимодействуют операционные единицы мышления. В рамках данной статьи рассматривается подходы к типологии концептов; типы концептов по их семантическому содержанию; специфические особенности национальных, культурных и художественных концептов и т.д.

Abstract

There are many types of concepts defined in the scientific literature, but there is no generally accepted classification that allows us to imagine how the relationship between different types of artistic concepts is built, to determine how and what operational units of thinking interact. Within the framework of this article, approaches to the typology of concepts are considered; types of concepts according to their semantic content; specific features of national, cultural and artistic concepts, etc.

Kalit so‘zlar: *asosiy va madaniy konseptlar, universaliya konseptlari, qiymat ifodasi, emosional ifoda.*

Ключевые слова: *базовые и культурные концепты, концепты универсалии, ценностное выражение, эмоциональное выражение.*

Key words: *basic and cultural concepts, concepts of universality, value expression, emotional expression.*

KIRISH

Ayni paytda, ilmiy adabiyotlarda konseptlarning ko‘p turlari belgilangan, biroq har xil turdagi badiiy konseptlar o‘rtasidagi munosabatlarning qay tarzda qurilishini tasavvur qilish, tafakkurning operatsion birliklari qanchalik va qay tarzda o‘zaro munosabatda bo‘lishini aniqlash imkonini beradigan umumiy belgilangan tasnif yo‘q. Zero, badiiy matnning lingvomadaniy, kognitiv, pragmatik xususiyatlarini belgilashda konseptual tahlil, badiiy konseptlar tipologiyasi muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy matnning konseptual tahlili va badiiy konseptlar tasnifi bilan bog‘liq masalalar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil o‘rganila boshlangan. Ma’lumki, konseptlar tipologiyasiga turlicha yondashuvlar mavjud:

1) tafakkur rivojining obrazli komponentini mavhumlashtirish darajasiga ko‘ra: muayyan rasmdan bir qator xususiy obrazlarni umumlashgan tasavvuri ifodasini hosil etuvchigacha;

2) konkret hissiy obrazni talqin etishiga ko‘ra: vizual tashqi xususiyatlarni o‘z ichiga olgan ko‘pchilik so‘zlarning ma’nosi lug‘atlarda rasmlar yordamida izohlanadi: ruhiy rasmlar, chizmalar, giperonimlar, freymlar, insaytlar, ssenariylar, kaleydoskopik konseptlar [3, 43-67];

3) translativlik xususiyatiga ko‘ra: muloqot jarayonida konseptning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga va bir madaniyatdan ikkinchi madaniyatga o‘tishi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, translativlik konseptlarning eng muhim diskursiv xususiyati hisoblanadi, chunki bu xususiyat faol va passiv o‘girilgan, mazmunan o‘zgartirilgan va o‘zgartirilmagan, tarjima qilingan va boshqa shakllarga kiritilmagan konseptlarni zidlash uchun ishlatilishi mumkin [12, 17-18];

4) ifodaning lisoniy usullariga ko‘ra (leksik va kompozision-stilistik eksplikasiyalar va boshqalar.);

5) tuzilishi turiga ko‘ra: bir darajali konseptlar, ko‘p darajali: tushunchaviy, obrazli, mazmunli darajalari [7, 7] va segment konseptlar;

6) lisoniy ifoda turi bo‘yicha (umummilliy, guruhiy, individual).

Keltirilgan konseptlar turlari ro‘yxati statik emas, ular bilimlar tasavvurining yangi tuzilmalari bilan kengaymoqda. Konseptlar tipologiyasi badiiy konseptning mental makonining xilma-xilligini ko‘rsatib berishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada badiiy konseptlar tipologiyasi muhokama qilinadi. Uning asosiy turlari va qismlari tavsiflanadi. Lingvomadaniy konsept va lingvomadaniy badiiy konsept turlari nazariy tahlil qilinadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Konseptlar tipologiyasi borasidagi fikrlarni umumlashtirib, konseptlar tipologiyasini tuzishning asosiy tamoyili asosida konseptlarni quyidagicha farqlash mumkin deb hisoblaymiz: semantik mazmuniga ko‘ra: asosiy va madaniy; nutqda ishlatilishi usuliga ko‘ra: kamayayotgan, paydo bo‘layotgan; bilim ifodasi (kognitiv) tuzilishi turiga ko‘ra: freymlar, sahnalar, skriptlar, va boshqalar.

Asosiy konseptlar muayyan tarixiy davrlarda ijtimoiy-madaniy makonda shakllangan jamiyat ma’naviy hayoti tushunchalarini aks ettiruvchi muayyan umumbashariy konseptlardir [16, 92]. Asosiy konseptlar – bu universaliya konseptlari (protokonsept) bo‘lib [4, 53], ilmiy tafakkurda axloqiy atamalar va mantiqiy operatorlar shaklida, badiiy asarda esa asosiy badiiy konseptlar sifatida namoyon etiladi.

Madaniy badiiy konseptlar – lisoniy belgilar va kognitiv obyektlar o‘rtasidagi oraliq o‘rinni egallagan kognitiv-semiologik shakllanish hisoblanib, nutqda ongimizning mental qobiliyatini, olamning etno-madaniy ko‘rinishini lisoniy shakllantiradi [1, 151; 2].

Har qanday madaniy ifoda (kulturema) – bu o‘ziga xos konseptdir, biroq har bir o‘ziga xos konsept – madaniy ifoda bo‘la olmaydi. Madaniy ifoda, deganda ma’lum bir xalqning madaniy zahirasi belgilari majmuini tashqil etuvchi [8, 44] va voqelik-obyekt (belgili) va voqelik-so‘z (bildiruvchi)ning o‘zaro ta’sirini aks ettiruvchi [5] olamning lisoniy manzarasining o‘ziga xos belgilari guruhi tushuniladi. Madaniy ifoda orqali biz uch tarkibiy qism: mazmun, formal ifoda va voqelik-predmetning umumiyligini tushunamiz.

Eslatib o‘tamiz, lingvomadaniyatda biror asarning kognitiv-kommunikativ doirasidan tashqaridagi konsept madaniy hisoblanib, unda madaniy ahamiyatga molik ma’lumotlar konseptual o‘zakka birikadi [14, 48]. Madaniy konseptlar, birinchi navbatda, “xalq ruhi”ni aks ettiruvchi mental mohiyatga ega bo‘lib, ularning antroposentrikligi – ma’naviyatga yo‘naltirilganligi, subyektivligi, ijtimoiyligi va etnik tafakkur shaxsining “shaxsiy sohasi”ni belgilaydi [2, 21-30; 6, 5-12].

Aynan shaxs tomonidan qabul qilinadigan qiymatli, shaxsan muhim bo‘lgan tushunchalar va tasavvurlar madaniy konsept maqomini oladi. Lingvomadaniyatning muhim kategoriyasi sifatida madaniy konsept quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

(1) qiymat ifodasi [10, 76], konsept shakllanishining asosi – bu hayotiy hodisalarni baholash obyektlari bo‘lib, unda “inson va insoniyat uchun kerakli narsalar (jismoniy va ma’naviy) baholanadi” [2, 181];

(2) ijtimoiy qiymatga ega, chunki u olamning qiymatli tasviri tarkibi hisoblanadi [10, 3], bunda madaniy konseptlarda aksiologik komponent sifatida baholovchi element nafaqat mavjud, balki dominantdir [15, 6];

(3) emosional ifoda [18, 80-96].

Madaniy konseptning yuqoridagi barcha xususiyatlari har qanday badiiy konseptda mavjud bo‘lishi mumkin.

Eng muhim badiiy madaniy konseptlarga qiymat dominantlari – ma’lum madaniyat uchun eng mohiyatli ma’nolar kiradi, ularning umumiyligi tilda qo‘llab-quvvatlanadigan va saqlanib qoladigan ma’lum bir madaniyat turini tashkil etadi. Madaniy konseptning jamiyat qadriyatlari bilan bog‘liqligi qadriyatlarga asoslangan madaniyatning tabiiy ravishda badiiy asarda aks etishi va u orqali shakllantirilishi bilan bog‘liq. Bu konseptlar har qanday madaniy makon etnolisoniy tafakkurining semantik va konstruktiv o‘zagi hisoblanadi. Ular badiiy matnda aks etgan

paradigmatik, sintagmatik va lingvomadaniy (qiymat-mazmunli) bog‘lanishlar birligida etnik tafakkurning semantik ifodalanishining butun tizimini o‘ziga qaratadi. Hozirgi kunda bir qator olimlar lingvomadaniy badiiy konseptlarning boshqa turlarini ham ajratib ko‘rsatmoqdalar:

V.I. Karasikning fikricha, lingvomadaniy konsept – til, tafakkur va madaniyatni majmuaviy o‘rganishga qaratilgan shartli mental birlikdir [10, 75-80]. Lingvomadaniy badiiy konsept esa – nutq, tafakkur va madaniyatni o‘rganishga qaratilgan matn birligidir. Demak, lingvomadaniy konsept va lingvomadaniy badiiy konsept uch tarkibiy tuzilishdan iborat: qiymat, faktual va obrazli elementlar. Lingvomadaniy konsept lisoniy voqelanishda umumifodaviy ma’no, mavhumlikni o‘zida aks ettiradi, uning aniq shakli mavhumlik darajasi bilan belgilanadi, uning chegaralarida bu konseptni tilda ifodalovchi birliklar bilan shakllangan leksiko-semantik paradigmaning hajmi sifat jihatdan aniqlanadi [11].

Lingvomadaniy konsept ko‘p o‘lchovli va uch darajadan iborat: a) tizim salohiyati, ya’ni madaniyat lisoniy shaxsining konseptga murojaat qilishining barcha vocitalari; b) subyekt salohiyati, ya’ni shaxs ongida saqlangan lisoniy vositalar arsenali. Uchinchi daraja doirasida madaniy va individual xotirada mavjud bo‘lgan yagona konsept bo‘lib, alohida janr va nutqlarda faoliyat ko‘rsatuvchi subyektiv konseptlarga bo‘linadi [15, 33-34].

Lingvomadaniy konseptlarni farqlash mezoni, ularning xizmat qiladigan bilim/ong sohasiga mansubligi bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi axloqiy, psixologik, mantiqiy va diniy atamalar uchun mazmunli asos yaratadi, bu, albatta, etnomadaniy ravishda bir til chegaralarida ham, tillararo ilmiy paradigmasi – fikrlash tarzi doirasida ham belgilanishi mumkin.

Lingvomadaniy badiiy konseptlarni tematik jihatdan lingvokognitiv konseptlar bilan bir xil umumiylikda tasniflash mumkin: emosional (hissiy) [13, 38-43], tarbiyali [17], tematik [15].

Badiiy nutqda ifodalanishi tamoyiliga ko‘ra badiiy konseptlar quyidagi turlarga bo‘linadi: individual, mikroguruhli, makroguruhli, milliy, sivilizasion, umumbashariy [9-13].

Lingvomadaniy badiiy konsept lingvomadaniyat (til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi fan)da ishlatiladigan boshqa birliklardan o‘zining mental tabiati bilan firqlanadi. Chunonchi, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri aynan tafakkurda aks topadi, chunki u til va madaniyatning o‘zaro ta’siri ongida, shuning uchun har qanday lingvomadaniy tadqiqotlar ham bir paytning o‘zida kognitiv tadqiqot sanaladi.

XULOSA

Shunday qilib, badiiy matnning konseptosferasini kognitiv tuzish va modellashtirish uchun badiiy konseptlarning asosiy va madaniy turlari dolzarb bo‘lib, ular asarda kamayuvchi konseptlar, rivojlanayotgan konseptlar sifatida talqin etilishi mumkin.

Badiiy matnning konseptosferasini shakllantiradigan kognitiv tuzilmalar, “o‘ta chuqur semantika” deb ataladigan, lisoniy semantika kategoriyalarini inson tafakkuri orqali olamni idrok etish natijasida hosil bo‘lgan umumiy kognitiv kategoriyalar bilan birlashtirish mexanizmlarini tushunishga qaratilgan mazmun va xarakteri ifodasini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алефиренко Н.Ф. Язык, познание и культура: Когнитивно-семиологическая синергетика слова: Монография. – Волгоград: Перемена, 2006. – 228 с.

2. Арутюнова Н.Д. Истина: фон и коннотации / Отв. ред. Н.Д. Арутюнова // Логический анализ языка: Культурные концепты. – М.: Наука, 1991. – С. 21-30.

3. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1996. – 103 с.

4. Вежбитская А. Семантические универсалии и описание языков / А. Вежбитская / Пер. с англ. А.Д. Шмелева, под ред. Т.В. Булыгиной. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 780 с.

5. Влахов С. Непереводимое в переводе / С. Влахов, С. Флорин. 2-е изд. испр. и дополн. – М., 1986. – 416 с.

6. Воркачев С.Г. Культурный концепт и значение / С.Г. Воркачев // Тр. Кубан. гос. технологич. ун-та. Сер. Гуманитарные науки. Т. 17, вып. 2. – Краснодар, 2003. – С. 268-276.

7. Воркачев С.Г. Счастье как лингвокультурный концепт /С.Г. Воркачев. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2004. – 236 с.

8. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы): Монография / В.В. Воробьев. – М.: РУНД, 1997. – 331 с.

9. Карасик В. И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. – Волгоград - Архангельск: Перемена, 1996. – С. 316.

10. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как единица исследования // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 75-80.

11. Карасик, В.И. Культурные доминанты в языке / В.И. Карасик // Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – С.166-205.

12. Карасик В.И. Транслируемость концептов // Проблемы вербализации концептов в семантике языка и текста: Материалы Международного симпозиума: В 2 ч. 4.2. Тезисы докладов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 17-19.

13. Красавский, Н.А. Эмоциональная концептосфера немецкого языка: опыт этимологического анализа // Вопросы когнитивной лингвистики. 2005. №1. – С. 38-43.

14. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: Учеб. пособие. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.

15. Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование / Г.Г. Слышкин // Вестник ВГУ, Серия «Лингвистика и межкультурная коммуникация», 2004, № 1. – Волгоград: Изд-во ВГУ. – С. 29-34.

16. Талми Л. Отношение грамматики к познанию // Вестник МГУ. Сер. 9. Филология. 1999. № 1. – С. 91-115.

17. Толочко О.В. Образ как составляющая концепта школа / О.В. Толочко // Языковая личность: проблемы лингвокультурологии и функциональной семантики. – Волгоград, 1999. – С. 130-134.

18. Шаховский В.И. Эмоциональные культурные концепты: параллели и контрасты // Языковая личность: культурные концепты. – Волгоград-Архангельск, изд-во «Перемена», 1996. – С. 80-96.